

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lrim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI

MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA 26-31

Xoliqova Ra'noxon

"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARIII..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHITINING GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARIII 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNING O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLIY - MADANIY XUSUSIYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL 100-102*

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKARI 104-107*

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR..... 108-110*

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Укташов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKLARINING SUN'iy BO'LINISH MUAMMOLARI

Toshtemirov To'lqin Toirjonovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Email: t.toshtemiroff@mail.ru

Tel: +998 93 397 18 12

ORCID: 0009-0001-2983-2017

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini sun'iy bo'linishini iqtisodiy oqibatlari tahlil qilingan bo'lib, soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlarini bo'lish, tugatish, biriktirish davlat budjetiga, raqobatga, umumiyligida iqtisodiyotga salbiy ta'siri oshib beriladi. Shuningdek, tadbirkorlikni sun'iy bo'linish holatini keltirib chiqaruvchi omillar, sun'iy bo'linish belgilari, uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga zarari, ushbu muammoni bartaraf etish yuzasidan takliflar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik sub'ekti, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish, yuridik shaxsni tugatish, sun'iy bo'linish, soliq rejimi, soliq imtiyozi, aylanmadan olinadigan soliq.

PROBLEMS OF ARTIFICIAL FRAGMENTATION OF SMALL ENTREPRENEURSHIP SUBJECTS

Toshtemirov Tulkin Toirjonovich

independent applicant of the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Annotation. This thesis analyzes the economic consequences of the artificial separation of small business entities, reveals the negative impact of separation, liquidation, and merger of small business entities to use tax benefits to reduce the tax burden on the state budget, competition, and the overall economy. Also, factors causing artificial division of entrepreneurship, signs of artificial division, its damage to socio-economic relations, and proposals for eliminating this problem will be considered.

Key words: state registration of a small business entity, a legal entity, liquidation of a legal entity, artificial division, tax regime, tax benefit, turnover tax.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari (kichik biznes)ning soliq yukini kamaytirish maqsadida, soddalashtirilgan soliq tizimidan umumiyligida tartibdagi soliq tizimiga o'tmaslik uchun korxonalarini sun'iy ravishda tugatish yoki birlashtirish holatlari ko'plab mamlakatlarda uchraydigan muammodir. Bu holat iqtisodiyotda "soliq tizimidan qochish" (tax avoidance) yoki "soliq rejorashtirish" (tax planning)ning bir ko'rinishi sifatida qabul qilinadi.

Biznesni bo'lish deganda yagona tadbirkorlik faoliyatini bir nechta korxona yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik yo'naliishlarida bo'lish tushuniladi. Biznesni bo'lish asosan soliq rejimi, soliq imtiyozlaridan foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Kichik biznesni "bo'lish" muammolari bilan shug'ullangan iqtisodchilarni fikriga ko'ra, bu muammo soliq siyosati, mikroiqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot kabi keng sohalarni qamrab oladi. Ular soliq tizimlarining samaradorligi, adolatliligi va soliq to'lovchilarining xulq-atvoriga ta'sirini o'rganadilar hamda soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan tizimlarning kichik biznesga ta'sirini, shuningdek, soliq yuki oshib ketganda biznesning soliqdan qochish strategiyalarini tahlil qiladilar.

Jeyms Mirrlis (James Mirrlees) [7] va Piter Daymond (Peter Diamond) [8] kabi Nobel mukofoti sovrindorlari optimal soliqqa tortish nazariyalarini soliqqa tortishning biznes xulqatvoriga ta'sirini o'rganib, agar soliqlar biznesning ishlab chiqarish jarayonlarini buzsa yoki uning samaradorligini pasaytirsa, bu iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, korxonalar soliq yukidan qochish uchun o'z faoliyatini o'zgartirishi, ya'ni "bo'linish" yoki norasmiy sektorga o'tishi mumkin. Daymond-Mirrlis tadqiqotlari soliqlarning firmalarning ishlab chiqarish va investitsiya qarorlariga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun nazariy asos yaratgan (2; 8-27).

Olga Rulkova o'zining "Biznesni bo'lishning asosiy xatarlari va muammolari" maqolasida maxsus soliq rejimlari ko'rinishidagi soliq imtiyozlari faqat kichik biznesga qaratilgan bo'lib, davlat tomonidan raqobat muhitini ta'minlash maqsadida yaratilganligini, kichik biznes o'rta va yirik biznes darajasiga ko'tarilgach, bu afzallikkarni suiiste'mol qila boshlashini, shu sababdan kichik biznesni bo'linishi vujudga kelishini ta'kidlaydi [9].

O'zbekiston Respublikasida ham kichik tadbirkorlik sub'ektlarini rahbatlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholiga ish o'rnlari yaratish kabi ijtimoiy masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun alohida soddalashtirilgan tartibda soliq rejimi va boshqa bir qator preferensiyalar joriy etilgan

Birgina kichik biznes uchun aylanmadan soliq tizimini mavjudligi va uni umumbelgilangan soliq tizimidan soliq to'lovchilardan soliq yuki ancha past ekanligi, tadbirkorlarni bo'linishiga asosiy sabablardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini bo'linishini bir nechta turlari va usullari mavjud. Ayniqsa soliq sababli bo'linish, qonuniy bo'lsada, ba'zida "sun'iy bo'linish" (artificial splitting) sifatida qaraladi.

Tadbirkorlikni qonuniy va noqonuniy bo'lish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va tadbirkorlik sohasiga oid qonunchilik talablariga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlarini tugatilishi, bo'linishi, qo'shilishi bilan bog'liq cheklovlari mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan esa, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va yuridik shaxsni tugatish tartibi belgilangan.

Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyatini bo'lishni o'zi soliqqa oid huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

Shundan kelib chiqib, agar tadbirkorlik faoliyati soliqlarni to'lashdan qochish emas, balki biznesni rivojlantirish orqali foyda ko'rish maqsadida bo'lingan bo'lsagina qonuniy hisoblanadi va bu tabiiy jarayon hisoblanadi.

Shu bilan birga, turli kichik tadbirkorlik sub'ektlari o'zlarining mustaqilligi va alohidaligini namoyish etishlari, o'z aktivlari va xodimlariga ega bo'lishlari va o'zlarining kontragentlari bilan bitimlar tuzishlari kerak.

Tadbirkorlikni sun'iy bo'lish. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini sun'iy bo'lish faqat soliq rejimi imkoniyatlaridan foydalanib, soliq imtiyozlaridan foydalanish maqsadida amalga oshiriladi.

-maxsus soliq rejimidan foydalanish uchun bir shaxs ta'sischilida mikrofirma va yakka tartibdagi tadbirkorlikni ochish hamda har bir ishtirokchining daromadi belgilangan chegaralar doirasida sun'iy ravishda cheklanadi.

-yagona markazdan sxemaning turli ishtirokchilari boshqariladi, rahbar, buxgalter, kadrlar, moliyaviy-xo'jalik hujjatlarini birgalikda saqlash, bir shaxs tomonidan barcha

ishtirokchilarni soliq hisobotlarini tayyorlash va taqdim etish, umumiylar telefon raqam, veb-saytlar, elektron pochta manzillar hamda kompyuterlarni IP manzillaridan foydalilanildi.

-umumiylar ishlab chiqarish jarayoni, resurslardan birgalikda foydalananish (ko'chmas mulk, asbob-uskunalar, transport, xodimlar), yetkazib beruvchilar va mijozlarning yagona doirasi, moddiy-texnik ta'minot va boshqalarni amalga oshiradigan yagona xizmatlar. Bunda resurslar ishtirokchilar guruhi doirasida hujjatlarsiz erkin foydalilanildi yoki o'tkazish faqat qog'ozda amalga oshiriladi.

-ayrim ishtirokchilar faoliyatining rasmiy xarakteri: yangi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar o'zaro bog'liq shaxslar (er-xotinlar, qarindoshlar, do'stlar) nomiga ro'yxatga olinadi. Aslida, bu shaxslar biznesda ishtirok etmaydi yoki butunlay yagona nazorat markazi tomonidan nazorat qilinadi.

-guruh a'zosi bo'lgan mas'uliyati cheklnagan jamiyatning ta'sischisi yoki boshqaruvchisi ham yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo'lib, boshqa a'zolar bilan bitimlar tuzadi.

Ayrim xorjiy davlatlarda agarda biznesni noqonuniy bo'lish holatlari aniqlansa, qo'shimcha soliqlar, penyalar va jarimalar qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq soliq organlari kichik biznes sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 milliard so'mdan oshganligini, aylanmadan soliq to'lovchini to'lash tizimidan noto'g'ri foydlanganlik holatini aniqlasa, qo'shimcha soliqlarni hisoblash, jarima va penyalarni hisoblashi mumkin.

Lekin, amaliyotda soliq organlari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini bo'linishi bilan bog'liq holatlar yuzasidan javobgarlikka tortilgan yoki sud ishlari mavjud emas.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, maxsus soliq rejimlari ko'rinishidagi soliq imtiyozlari faqat kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun belgilanadi va mohiyatan barcha bozor ishtirokchilari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratishga qaratilgan va bunday imtiyozlardan foydalanishini suiiste'mol qilish davlatning kichik biznes sub'ektlarini soliq mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlariga putur yetkazadi.

Shu sababli, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini bo'linishini oldini olish, tadbirkorlarni toifasi o'zgarganda soliq yukini keskin ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ularni o'rta biznes va yirik biznes toifalariga o'tishini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va pereferensiyalar joriy etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси.
3. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси.
4. Mirrlees, J. A. (1971). An Exploration in the Theory of Optimal Income Taxation. The Review of Economic Studies, 38(2), 175-208.
5. Diamond, P. A., & Mirrlees, J. A. (1971). Optimal Taxation and Public Production I: Production Efficiency. The American Economic Review, 61(1), 8-27.
6. Ольга Рулькова "Основные риски и проблемы дробления бизнеса", <https://www.garant.ru/1c-wiseadvice/guide/nalogovye-riski-drobleniya-biznesa/>
7. Mirrlees, J. A. (1971). An Exploration in the Theory of Optimal Income Taxation. The Review of Economic Studies, 38(2), 175-208.
8. Diamond, P. A., & Mirrlees, J. A. (1971). Optimal Taxation and Public Production I: Production Efficiency. The American Economic Review, 61(1), 8-27.

9. <https://www.garant.ru/1c-wiseadvice/guide/nalogovye-riski-drobleniya-biznesa/>

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.